

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026-yil yanvar-iyul

- I. Sanoat ishlab chiqarishi
- II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- III. Bajarilgan qurilish ishlari
- IV. Chakana savdo tovar aylanmasi
- V. Tashqi savdo aylanmasi
- VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- VII. Korxona va tashkilotlar soni



I. Sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalari tomonidan **795 447,4** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,9 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **86,8 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **6,3 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,4 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu – ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **8,1 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **8,4 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish hajmining oshishi (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,5 b.**), shuningdek, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish (**1,4 b.**) sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **89,9 %**) hamda mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish korxonalarida (**81,6 %**) hajmlarning pasayishi kuzatildi.



II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026-yil yanvar-iyul oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **3,2 %** ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **1,5 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **0,61** foiz punkt (f.p.) ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda **4,2 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichga **1,35** f.p. ta'sir qilgan, xizmatlar esa **4,6 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni **1,20** f.p. oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

2025-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **143,9 %** ni (Sug'urta va moliyaviy xizmatlar), quyi chegarasi esa **100,5 %** ni (Ta'lim sohasidagi xizmatlar) tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida yig'ma INI o'sishiga "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari", "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" hamda "Transport" bo'limlaridagi narxlar o'zgarishi eng katta hissa qo'shdi (umumiy hisobda **+2,12** f.p. yoki umumiy ta'sirning **67,1 %**i). Boshqa bo'limlarning jami hissasi **+1,04** f.p.ni (umumiy ta'sirning **32,9 %**) tashkil etdi.



III. Bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida **227 446,6** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,9 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **56 867,4** mlrd so'mi yoki **25,0 %** yirik korxona va tashkilotlar tomonidan, **126 222,6** mlrd so'mi yoki **55,5 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **44 356,6** mlrd so'mi yoki **19,5 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



IV. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **310 901,9** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **26,9 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,8 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **17,3 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **71,9 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10,3 %** ulush bilan **32 178,3** mlrd so'mni tashkil etdi.



V. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **49 535,0** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **3 731,6** mln AQSh dollariga yoki **8,1 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **19 931,3** mln AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6 %** ga tushdi. Import **29 603,6** mln AQSh dollariga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,8 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **63,2 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **13,9 %**, har xil tayyor mahsulotlar – **8,4 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **7,8 %** va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **7,7 %** bo'ldi.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**32,8 %**), sanoat tovarlari (**14,0 %**), shuningdek, kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**12,1 %**) tashkil etdi.



VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **802 461,8** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,7 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga asosiy omil savdo xizmatlarining **15,2 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri – **3,9 f.p.**), moliyaviy xizmatlarning **24,5 %** ga (o'sishdagi ta'siri **3,6 f.p.**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning **15,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,8 f.p.**), transport xizmatlarining **14,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,3 f.p.**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **20,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,5 f.p.**) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari hajmiga to'g'ri keldi (**202 007,3** mlrd so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati – **115,2 %**), shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (**149 719,2** mlrd so'm, yoki **115,0 %**), moliyaviy xizmatlar (**125 805,6** mlrd so'm, yoki **124,5 %**) va transport xizmatlari (**121 451,6** mlrd so'm, yoki **114,3 %**) ga to'g'ri keladi.



VII. Korxona va tashkilotlar soni

2026-yil 1-avgust holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **601,3** mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **440,9** mingta (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari). Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (**114 839** ta), Toshkent (**57 004** ta), Samarqand (**55 449** ta), Farg'ona (**50 695** ta), Qashqadaryo (**46 343** ta), Buxoro (**36 639** ta) va Xorazm (**34 577** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **164 481** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **131 925** ta, sanoat sohasida – **63 861** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **33 966** ta hamda qurilish sohasida – **33 163** tani tashkil etdi.

2026-yil yanvar-iyul oylarida respublikada **53,3** mingta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **52,2** mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **20 973** tani tashkil etdi. Ularning **4 685** tasi qo'shma korxonalar va **16 288** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistika ma'lumotlarini tarqatish
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

